

BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH: O'QUV DASTURI-O'QITUVCHI-BAHOLASH

XALQARO ILMYIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
SPORT FAOLIYATI VA PEDAGOGIKA FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM KAFEDRASI**

**“BOSHLANG‘ICH TA‘LIM MAZMUNINI
TAKOMILLASHTIRISH: O‘QUV DASTURI-O‘QITUVCHI-
BAHOLASH”**

**XALQARO ILMIIY-AMALIIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

**«СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ
НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: УЧЕБНАЯ ПРОГРАММА-
УЧИТЕЛЬ -ОЦЕНИВАНИЕ»**

**МАТЕРИАЛЫ
НАУЧНО - ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

**“IMPROVING PRIMARY EDUCATION CONTENT:
CURRICULUM-TEACHER-ASSESSMENT”**

**MATERIALS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
CONFERENCE**

2023-yil 19-oktabr

BUXORO – 2023

tobora saralangan, tadqiqotchilik xarakteriga ega bo'lmogda. Shuning uchun ham pedagoglar tomonidan joriy etilgan pedagogik yangiliklarni tahlil qilish va baholash, ularni muvaffaqiyatli ishlab chiqish va qo'llash uchun shart-sharoit yaratish ta'lim muassasalari rahbarlari va ta'lim boshqaruvi organlari faoliyatidagi muhim yo'nalish hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Narzullaevna, K. S. (2021). The Role of Educational Process in the Formation of a Harmoniously Developed Generation and Methods of using Modern Teaching Technologies.
2. Qurbonova, S. N., & Abdullayeva, F. (2021). TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. *Scientific progress*, 2(6), 1030-1035.
3. Курбанова, Ш. Н., & Музаффарова, Н. (2022). ИНТЕРАКТИВНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 80-84.
4. Kurbanova, S. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIGA INTENSIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 27(27).
5. Narzullayevna, Q. S. (2023). TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI VA ULARNING MOHIYATI. *Ustozlar uchun*, 16(1), 322-326.
6. Narzullayevna, K. S. (2022). TALIM OLUVCHILARNING MUSTAQIL VA IJODIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 85-88.
7. Qurbonova, S. N., & Abdullayeva, F. TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.
8. YARASHOV, M. (2023). The Place of Digital Technologies in the Education System. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 30(30).
9. YARASHOV, M. (2023). Methodology of Application of Digital Technologies in Primary Education. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 30(30).

“NUTQ O'STIRISH METODIKASI” MODULINI O'QITISHDA LOYIHALASH METODIDAN FOYDALANISH

Tog'ayeva Umida Shavqi qizi

Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili o'qitish metodikasining “nutq o'stirish metodikasi” modulini takomillashtirish yo'llari, usul va vositalari bayon qilingan. Bugungi kunda ta'lim tizimida turli yangiliklarning kirib kelishi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, “Ona tili o'qitish metodikasi” modulining takomillashishida loyihaviy ta'limning ahamiyati beqiyosdir. Ushbu maqolada “nutq o'stirish metodikasi” modulini takomillashtirishda loyihalash metodini qo'llash va ta'lim jarayonida tashkil etish usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: metodika, loyiha, loyihalash metodi, modul, nutq, nutq o'stirish.

Аннотация: В данной статье описаны пути, методы и средства совершенствования модуля «методика речи» методики обучения родному языку. Сегодня внедрение различных инноваций в систему образования служит повышению качества образования. В частности, несравнима важность проектного обучения в совершенствовании модуля «Методика обучения родному языку». В данной статье описаны методы применения метода проектирования при совершенствовании модуля «Методика развития речи» и организации его в учебном процессе.

Ключевые слова: методика, проект, метод проектирования, модуль, речь, развитие речи.

Annotation: This article describes the ways, methods and means of improving the "methodology of speech" module of the mother tongue teaching methodology. Today, the introduction of various innovations in the education system serves to improve the quality of education. In particular, the importance of project education in the improvement of the "Methodology of teaching the mother tongue" module is incomparable. This article describes the methods of applying the design method in the improvement of the "methodology of speech development" module and organizing it in the educational process.

Key words: methodology, project, design method, module, speech, speech development.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi olit ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan, jahon pedagogikasining ilg'or metodlaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan bo'lib, loyiha metodi ta'limning ilg'or usullarini o'zida mujassamlashtirgan. Loyihalash - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida yo'l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axborotini yetkazish vositasi va yo'llarini aniqlash usulidir. Ona tili o'qitish metodikasi ta'limni loyihalar usuli orqali tashkil etish bilim va malakalarni amaliy qo'llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmualari o'qitish usulini amalga oshiradi. Ta'lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o'qitish usullaridan foydalanishga qaraganda, rejalashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar. O'quv loyihalar usuli ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilarga muammoni, faraz, vazifalarni ifodalashda yordam beradi va tezkor boshqaradi. Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo'lishi mumkin. Loyihalash ikki usulda - shaxsiy va guruhviy asosda amalga oshiriladi. Har ikki yo'nalishning ijobiy va afzallik xususiyatlari bor. "Nutq o'stirish metodikasi" modulini loyihalash ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi, talabalar loyiha ustida ishlashda loyiha rejasi asosida aniq maqsad uchun faoliyatlarini amalga oshiradi. Natijada qatnashchilarda loyihani bajarilishi o'zining faoliyatiga bog'liq ekani tushunchasini anglash yuqori mas'uliyat hissini yuzaga keltiradi; loyihaning barcha bosqichlarini bajarish jarayonida fikrning tug'ilishidan yakuniy refleksiya gacha talabalar tajriba orttiradilar; ularda eng muhim o'quv ko'nikma va malakalari (tadqiqotchilik, baholash, mustaqil fikrlash, mustaqil qarorlar chiqarish, taqdimot qilish) shakllantirish to'la boshqariladigan jarayonga aylanadi.

Nutq o'stirish metodikasi bo'limi boshlang'ich sinflarda alohida o'rin tutadi. Bolalar birinchi navbatda tilni, nutqni o'quv predmeti sifatida anglaydilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o'ylab, rejali nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydilar. Ular o'zining grafik shakli bilangina emas, balki leksikasi, sintaktik va morfologik shakli bilan ham og'zaki nutqdan farq qiladigan yozma nutqni ham egallaydilar. Metodika bolalar nutqini boyitishi, sintaktik va bog'lanishli nutqni o'stirishni ham ta'minlashi kerak. Shuni aytib o'tish kerakki, bog'lanishli nutq maktablarda alohida bo'lim sifatida o'rganilmaydi, u til fanining boshqa bo'limlari bilan bog'langan holda shakllantiriladi.

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining

muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) aktiv amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilar tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni muhim aktiv egallashlariga yordam beradigan metod va ish turlarini qo'llash tushuniladi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilap nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti - nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til normalarini o'zlashtirish.

2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish.

3. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish.

Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:

1) so'z ustida ishlash;

2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash;

3) bog'lanishli nutq ustida ishlash.

Nutq o'stirish metodikasini takomillashtirishda loyihaviy ta'limning ahamiyati nihoyatda kattadir. Chunki loyiha asosida tashkil etilgan dars, albatta, o'z samaradorligini beradi. Nutq o'stirish jarayonida mantiqiy va ijodiy topshiriqlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bo'limni o'qitishda talabalar bilan loyiha metodini qo'llash lozim. Dastlab loyiha metodi haqida talabalarga tushuncha beriladi va bajarish ketma-ketligi aytib o'tiladi. Talabalar guruhga bo'lingan holda yoki individual muammo to'g'risida axborot yig'adilar, uni qayta ishlaydilar. So'ngra har bir guruh yoki talaba o'zi tayyorlagan taqdimotni namoyish etadi. Bu jarayonda talaba Har bir ishni tartib asosida, aniq bir maqsad qo'ygan holda aniq natijaga erishish yo'llarini topishni o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: TDPU, 2003.

2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi. – T.: "Iqtisodiyot" 2012.

3. Azimova I., Mavlonova K., Qur'onov S., Tursun Sh. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism. 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: "Respublika talim markazi", 2021. – 104 b.

4. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva, Sh. Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: "Noshir", 2009. - 352 b.

6. Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash namunalari. -T.: RTM, 2000. -46 b.

7. Tog'ayeva, U. (2021). ONA TILI O'QITISH METODIKASI. *MODULINI O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH//ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).*

8. Tog'ayeva, U. (2020). IMPROVING THE MODULE" MOTHER TONGUE TEACHING METHOD" IN PROJECT EDUCATIONAL INSTRUCTIONS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).*

9. www.ziyonet.uz

Kasimov F.F. MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETILISHINING AHAMIYATI	244
Nasimova Nasiba Qurbon qizi. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'TKAZILADIGAN MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLAR ORQALI TARBIYALANUVCHILARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISH, TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLASHTIRISH.....	248
Himoyeva Sarvarbegim. ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILiyATINI RIVOJLANTIRISH.....	251
Qodirova Saodat Abduraximovna. MAQOL VA MATAL JANRINING SHE'RIYATDAGI O'RNI ...	253
Saidova Nodira Mustakimovna. NAVOIY G'AZALLARINING MATNIY TAHLILI.....	256
Ashurova Marhabo Sayfulloyevna. HUSAYN VOIZ KOSHIFIY MEROSINI O'RGANISH JARAYONIDA TALABALARDA MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	259
Saidova Nodira Mustakimovna. NAVOIY VA ILOHIYOTGA OID MULOHAZALAR.....	262
Ortiqova Gulshoda Komiljon qizi. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA USMON NOSIR HAYOTI VA IJODINI O'QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANING O'RNI	264
Sidiqova Dilora Shavkatovna. MASOFAVIY O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	266
Садуллоева Махфуза Гайбуллоевна. СТРУКТУРА ДНЕВНИКА ДЛЯ ОРГАНИЗАЦИИ НЕПРЕРЫВНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ	268
Qurbonova Shoira Narzullayevna, Nabiyeva Maftuna. TA'LIM JARAYONIDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	271
Tog'ayeva Umida Shavqi qizi. "NUTQ O'STIRISH METODIKASI" MODULINI O'QITISHDA LOYIHALASH METODIDAN FOYDALANISH.....	273
Mavlonova Sevara, Sobirova Jasmina. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	276
Saidova Zilola Gadoymurodovna. TA'LIM INNOVATSIYASI VA INTEGRATSIYASI	278
Asatova Barfiya Faxridinovna. Boshlang'ich sinflarda matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish.....	280
Tashmatova Shalola Ravshanbekovna. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASH QOBILiyATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOiy ZARURATI	282
Toshpulatova M.I. TA'LIM TIZIMIDA ILMIY BILIMLAR INTEGRATSIYASINING TURLARI ...	284
D.Mamanazarova, P.Ashurqulova, Z.Ne'matov. BO'LAJAK O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENTLIGINING TUZILMAVIY KOMPONENTI.....	288
D. Qarshibayev, M. Normatova, S.A. Burxonov. IXTISOSLASHGAN UMUMTA'LIM MAKTABI O'QITUVCHISINING INNOVATION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	290
U.Abdumurodova, Z.Abdullayeva, R.Karimova, Z.Ne'matov. BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING QULAY VA SAMARALI USULLARI.....	292
Shaxnoza Nurmatova Ibroximovna, Farxodova Farangiz Jamshidovna, Xamrayeva Laylo Akmal qizi, Toshkentova Odina Qo'qon qizi, Usmonova Umida Nasriddin qizi, Yoqubjonova Laylo Asqarali qizi. MAMLAKATIMIZDA ILMIY TADQIQOTLARNI TASHKIL QILISH OMILLARI	296
Axmedov G'. OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH	298
S.Qodirova, Z.Ikromova, R.Esbosinov. BOSHLANG'ICH SINFLARDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING METODIK ASOSLARI	300
Камилова Гулмира Алимовна. ЭКОЛОГИК ТАРБИЯ ВА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ ПАРЕМИК ЖАНРЛАР ВОСИТАСИДА ШАКЛЛАНТИРИШ	303
Usmonqulova Sohiba Mirzohid qizi. O'QUVCHILARGA SO'Z TURKUMI HAQIDAGI BILIMNI O'RGATISHNING AMALIY VA NAZARIY ASOSLARI	305
5-SEKTOR: BOSHLANG'ICH TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLAR.....	308
Hakimova Nargiza Supxonovna. BOSHLANG'ICH SINFLAR TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJTIMOiy KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	308